

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIY POTENSIALI	38-43
---	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Shokirov Oybek Azizovich</i> MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF DIGITALIZATION OF PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE LEGALITY OF DECISIONS OF LOCAL GOVERNMENT BODIES

Shokirov Oybek
independent researcher

Abstract. In this article examines the issues of digitalization of prosecutorial supervision over the legality of decisions of local government bodies. These issues have been studied on the basis of existing normative documents, scientific literature, and existing opinions and considerations in scientific research conducted by researchers. At the same time, the current practice of prosecutorial supervision over the legality of decisions of local government bodies by the prosecutor's office in Uzbekistan was analyzed, and proposals for its digitalization were made.

Keywords: prosecutor, supervision, digitalization, local authorities, hokim's decision.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

Shokirov Oybek Azizovich
Mustaqil izlanuvchi
Email: oybekazizovich@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini raqamlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Bu masalalar amaldagi normativ hujjatlar, ilmiy adabiyotlarda va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mavjud bo'lgan fikr va mulohazalar asosida o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda prokuratura organlari tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda bugungi kunda mavjud amaliyot tahlil qilingan va uni raqamlashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: prokuror, nazorat, raqamlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati, hokim qarori.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N09>

Kirish. Dunyo mamlakatlarida har bir sohani raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralayotgan bir paytda respublikamizda prokuraturaning qonunchilik ijrosi ustidan nazorat faoliyatida ham raqamlashtirish, elektron shaklda onlayn (masofaviy) ishni tashkil etish orqali prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida hujjatlar aylanishi uchun ketadigan vaqt qisqartiriladi, mehnat unumdorligi va samaradorligiga salbiy ta'sirning oldi olinadi, qonunchilikka rioya etish holati onlayn (masofaviy) o'rganiladi, qonunbuzilish holatlariga onlayn (masofaviy) munosabat bildirish imkoniyati yaratiladi hamda prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha axborot tizimi joriy etilishiga erishiladi.

Prokuratura organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini oshirish, nazorat funksiyalarini amalga oshirish usullarini takomillashtirish, qonun hujjatlari ijrosi

ustidan ta'sirchan nazoratni kuchaytirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida faoliyat izchil raqamli transformatsiya qilinmoqda [1].

Ushbu vazifalar sifatli va to'liq bajarilishi prokuratura organlari faoliyati raqamli transformatsiya qilinishi bilan bog'liq. Darhaqiqat, respublikamizda barcha soha va tarmoqlar, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni [2] shaffoflikni oshirish, korrupsiya xatarlarini kamaytirish va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida ma'muriy jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Zotan, axborot tizimlari va resurslari davlat organlari va tashkilotlarida an'anaviy jarayonlarni qisqartirish, tezkorlik va unumdorlikni oshirish, inson omilini istisno qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning, xorijiy va xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyati natijadorligini ularning samarali axborot-kommunikatsiya xizmatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Masalan, birgina elektron hujjat aylanishini raqamlashtirish jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonini tezlashtirish, qog'oz va pochta xizmatlari xarajatlarini tejashga imkon berdi (birgina 2021-yilda "Elektron hujjat aylanishi" tizimi yordamida 3,2 mlrd so'm tejalgan).

Prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish mavzusi ham muhim dolzarb mavzulardan biridir.

Metodologiya. Ushbu maqolani tayyorlashda IMRAD usulidan foydalanildi. Bunda, tegishli sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikri o'rganildi, muhokama qilindi va taqqoslandi. Shuningdek, tahlilda muallifning subyektiv fikrlari ham katta o'rin egallaydi.

Asosiy qism (natija va muhokama). Faoliyatni raqamlashtirish bo'yicha bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 16-noyabrdagi "Prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2433-son qarori bilan prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Ushbu dasturda, xususan, quyidagi tadbirlar belgilangan:

optik tolali aloqa liniyalari asosida tuman darajasigacha bo'lgan xavfsiz korporativ kompyuter tarmog'ini yaratish;

ma'lumotlarni qayta ishlash markazini barpo etish; xavfsiz elektron pochta amalga oshirish;

audio-videokonferensaloqa tizimi va IP-telefoniya tarmog'ini yaratish;

elektron hujjat aylanishiga o'tish;

prokuratura organlarining axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini yaratish;

idoralararo axborot hamkorligini tashkil etish; kompyuter va periferik uskunalari, dasturiy ta'minot bilan jihozlash.

Bu boradagi ishlarni jadallashtirish maqsadida O'zbekiston 55 Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari

faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2568-sonli qaroriga muvofiq, Bosh prokuratura tuzilmasida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi tashkil etildi.

Mazkur qarorga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va Transport prokuraturalarida tegishli tarmoqlar tashkil etildi.

Boshqarma tomonidan idoralararo elektron hamkorlik yo'lga qo'yilgan holda Bosh prokuraturaning axborot tizimlari va resurslari yaratib kelinmoqda. Xususan, "Elektron hujjat aylanishi", "E-material", "Protsessual majburlov choralarining yagona elektron hisobini yuritish moduli", "Yagona hisobot portali", "Kadrlar siyosati", "Ommaviy nazorati" dasturlari ishlab chiqilib, faoliyatga joriy etildi.

Bugungi kunda prokuror nazorati hujjatlarini yuritish imkoniyatini beruvchi "Prokuror nazorati" axborot tizimini joriy etish ishlari olib borilmoqda. Mazkur axborot tizimi prokuror nazorati doirasida o'tkazilgan tekshirishlar va qo'llanilgan prokuror nazorati hujjatlarini elektron shaklda yuritishga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi PF-6191-sonli farmoni [3] ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi hamda Davlat xizmatlari agentligining Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan integratsiya qilindi.

Hozirgi paytda Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi axborot tizimi bilan integratsiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Aytish mumkinki, prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish har bir sohaning, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonunchilik ijrosiga oid ma'lumotlarini elektron shaklda yig'ish, saqlash, o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, prokuratura nazorati prokuraturaning o'ziga xos faoliyati sifatida tegishli organlar tomonidan qonun talablariga rioya etilishini (bajarilishini) nazorat qilish, mamlakatda qonuniylik ruhini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish funksiyalarini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat.

Prokuratura organlarining mahalliy davlat hokimiyat organlari norma ijodkorligini nazorat qilish bo'yicha faoliyatining huquqiy asoslari haqida so'z yuritganda, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida bu haqda maxsus qonunlarda qayd etilmagan holda ham, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari vakolatlari bo'yicha eng yuqori o'rinni egallab turganini alohida ta'kidlash joiz. Prokuror nazoratini tashkil etish va tuzilmasi bo'yicha munosabatlarni tartibga solishda ularning o'zlari bevosita ishtirok etmasalar ham, ularning talablari va standartlari to'g'ridan-to'g'ri harakatlarning, shu jumladan Konstitutsiyaning asosini tashkil etganligi sababli, huquqiy vositalarning butun majmuasiga tom ma'noda kirib boradi.

Chunonchi, yangilangan Konstitutsiyamizning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va

normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir" deb belgilab qo'yilgan [4].

Prokuratura nazorati samaradorligini baholash mezonlari haqida gap ketganda, uning samaradorligi ma'lum darajada axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, olimlar V.B.Andreev va O.A.Insarov prokuror nazoratining barcha faoliyat sohalar bilan, shu jumladan, axborotni qayta ishlash bilan chambarchas bog'liqligini asosli ravishda ta'kidlaydi va uning muhim xususiyatlari sifatida uning ishonchliligi va to'liqligini, vaziyatni tushunish va qaror qabul qilish uchun haqiqiy holatiga muvofiqligi bilan izohlaydi. Xuddi shu paytni o'zida prokurorga kerakli bo'lgan ma'lumotlar ko'pincha qarama-qarshi va yetarli bo'lmasa, bu ishni sezilarli darajada murakkablashtiradi [5].

Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Jumladan:

Birinchidan, ushbu nazorat preventiv emas, postfaktum tusga egaligi tufayli, doim ham o'z samarasini bermaydi. Nazorat tadbirlarida allaqachon kuchga kirib ulgurgan hokim qarorlari o'rganish predmeti bo'lgani tufayli, prokuror ta'sir choralari qonun buzilishi bo'lib o'tganidan so'ng, uni bartaraf etish, buzilgan huquqlarni tiklash maqsadida qabul qilinadi.

Masalan, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ hujjatlari (qarorlari) barqaror emas. Ya'ni, bir hokim qarori bilan ajratilgan yer uchastkasi, boshqa (keyingi) hokim qarori bilan bekor qilinishi mumkin. Bu esa, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari manfaatlariga zid bo'lib, ularga jiddiy zarar yetkazadi.

Jumladan, 2022, bu esa yilda prokuratura organlari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar jarayonida aniqlanishicha hokimlar tomonidan **yer ajratish va ularni davlat zaxirasiga olish haqida 439 ta** (33 439 gektar) qonun hujjatlari talablariga zid qarorlar qabul qilingan.

Xususan, Xorazmda 115 ta, Toshkent viloyatida 51 ta, Sirdaryoda 48 ta, Farg'onada 39 ta, Jizzaxda 31 ta, Qashqadaryoda 28 ta, Samarqandda 27 ta, Buxoroda 24 ta, Namanganda 20 ta, Surxondaryoda 17 ta, Qoraqalpog'iston 16 ta, Toshkent shahrida 11 ta, Andijonda 10 ta, Navoiyda 2 ta.

Ikkinchidan, nazorat jarayoni doimiy va uzluksiz monitoring shaklida emas, balki har yarim oy, bir oy muddatda, ko'pincha yuzaki va nomiga o'tkaziladigan, aksariyat hollarda kameral tartibda emas, balki joyiga (hokimlikka) chiqib o'tkaziladigan tadbir shakliga ega. Buning oqibatida, mahalliy davlat hokimiyati tomonidan qonunga xilof bo'lgan qarorlar chiqarish amaliyotiga chek qo'yilmayapti.

Jumladan, Bosh prokurorning 04.08.2014-yildagi 110-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom va 18.03.2015-yildagi 121-sonli buyrug'i talablariga asosan yuqorida qayd qilingan organlarning huquqiy hujjatlari **har 15 kunda chaqirib olinib o'rganilishi**, 27.11.2006-yildagi 65-sonli buyruq bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaning 5.2-bandiga asosan kelib tushgan va qabul qilingan barcha hujjatlar tegishli kitoblarga ro'yxatga olinishi lozimligi belgilangan.

Biroq, Bosh prokuratura o'tkazgan tekshiruvlarda aniqlanishicha, Yunusobod tumani prokuraturasida, Shayxontohur tumani prokuraturasida hokimlik tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar chaqirib olinmasdan, **ushbu idoralarning o'zida o'rganib kelingan**.

Zarafshon ixtisoslashtirilgan prokuraturasi tomonidan nazorat ostidagi obyektlar tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar **har 15 kunda umuman o'rganib borilmagan bo'lsa**, ayrim prokuraturalar tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar to'liq o'rganilmagan.

Uchinchidan, xorijiy davlatlar (**RF, Qozog'iston, boshqa MDH davlatlari**) tajribasi tahlili shundan dalolat beradiki, prokuror nazorati tadbirlari ochiq va oshkora tarzda, tekshiruv subyektlari, tekshiruv grafigi, tekshiruv predmeti va muddatlarini aniq belgilab, tegishli davlat idoralari rasmiy saytlarida barchaga ma'lum qilib o'tkazishi, prokuraturaga nisbatan ishonchni oshiradi. Qolaversa, bu subyektlar qonuniy ishlashiga ham turtki buladi, chunki muddatdan tashqari, ariza va signallar asosida tekshiruvlar o'tkazish tartibi ham saqlanib qolgan.

Qolaversa, bu tadbirlar OAV nigohida bo'lib, doimiy ravishda prokuratura idoralarining jamiyat, aholi o'rtasidagi mavqeyi, nufuzida o'z aksini topadi., prokuraturaning ommaviy idora sifatida namoyon bo'lishiga turtki beradi.

Misol uchun, **Qozog'istonda** Bosh prokurorning hujjatlari oshkora va ommaviy tuga ega.

Jumladan, mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlari qonuniyligini ta'minlash maqsadida alohida hujjat qabul qilingan – 2023-yil 17-yanvardagi 32-sonli “Prokuror nazoratini tashkil etishning ayrim masalalari haqida”gi [6] (О некоторых вопросах организации прокурорского надзора) Bosh prokuror buyrug'i bilan bir nechta hujjat tasdiqlangan, jumladan:

1) Правила назначения и проведения органами прокуратуры проверок соблюдения законности, анализа состояния законности, а также осуществления оценки актов, вступивших в силу;

(Prokuratura organlari tomonidan qonuniylikka rioya etilishini tekshirish, qonuniylik ahvolini tahlil qilish, shuningdek kuchga kirgan hujjatlarni baholashni amalga oshirish tadbirlarini tayinlash va o'tkazish Qoidalari)

2) Инструкция по организации надзора за законностью деятельности государственных, местных представительных и исполнительных органов, органов местного самоуправления, учреждений, их должностных лиц, иных организаций, независимо от формы собственности, а также принимаемых ими актов и решений;

(Davlat, mahalliy vakillik va ijro hokimiyati, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, muassasalari, ularning mansabdor shaxslari, boshqa tashkilotlar faoliyati, shuningdek ular tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar va qarorlar qonuniyligi ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma)

Mazkur hujjatlar oshkora tusga ega bo'lib, ularda prokuratura organi tekshiruv uchun asoslar, tekshiruvni o'tkazish huquqiy mexanizmi, muddatlari, kelishish, huquqiy ta'sir choralari qo'llash va boshqa masalalar atroflicha ko'rsatilgan.

Rossiya Federatsiyasida ham Bosh Prokurorning umummajburiy yoki umumiy qo'llanishi mumkin bo'lgan hujjatlari, shuningdek hattoki metodik tavsiyalari ham ommaviy va oshkora tusga ega.

Jumladan, RF Bosh prokurorining 31.08.2023-yildagi 583-sonli “Rossiya Federatsiyasi subyektlari davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari normativ huquqiy hujjatlari qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish to'g'risida”gi (“Об организации прокурорского надзора за законностью нормативных правовых актов органов государственной власти субъектов Российской Федерации и органов местного самоуправления”) buyrug'i ommaviy va Internetda erkin chiqarib qo'yilgan [7].

Shuningdek, RF da prokuratura mahalliy davlat hokimiyati yangi qabul qilinayotgan hujjatlarini doimiy monitoringini yuritishi shart. Bu holatda prokuratura xodimlari tegishli hujjatlar loyihalarini olishadi.

Buning uchun, misol uchun, ko'plab RF subyektlarida prokuratura va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida kelishuvlar tuzilgan bo'lib, ularda NPA loyihalarini taqdim etish shartlari, muddatlari, elektron hujjat loyihalari almashinuvi mexanizmi belgilanadi.

Xulosa. Shu munosabat bilan, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish samarasi va natijadorligini oshirish, bu sohada qonuniylikni yanada ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1) Prokuror nazoratini **monitoring shaklida tashkil etib**, kuchga kirmagan normativ hujjatlar loyihalarini adliya idorasi bilan birga prokuraturaga ham taqdim qilish lozim.

Qolaversa, shu yo'l bilan ular qarorlarning qonuniyligiga ham preventiv baho berishadi. Boisi, ayni kunlarda joylarda hokim qarorlarini yuridik jihatdan ta'minlash adliya bo'limlari va yuridik markazlar zimmasida bo'lganligi bois, adliya idoralari tomonidan o'tkaziladigan huquqiy ekspertiza va o'rganishlar yetarlicha ta'sirchan deyin qiyin. Boisi, bir tizimning vakillari bir-birini nazorat qilishida doim ham qat'iyat va javobgarlikni ta'minlab bo'lmaydi.

Shunga ko'ra, adliya idoralari zimmasida huquqiy ekspertiza vazifasini qoldirib, qarorlar ustidan nazoratni prokuror nazorati predmetiga kiritish maqsadga muvofiq. Qolaversa, bu Konstitutsiyaviy normalarga ham mos kelib, qonuniylikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'rinli bo'lardi

Shuningdek, adliya idoralari bilan takroriylikni oldini olish maqsadida, prokuraturaga faqat mahalliy jamiyat, aholi, uning katta qismi uchun ahamiyatga ega normativ tusdagi qarorlarning loyihalarini taqdim etish lozim.

Bu preventiv tekshiruv, doimiy monitoring tariqasida amalga oshirilsa, qonun buzilishlar sodir bo'lganidan keyin emas, balki ularni oldini olish tartibida, profilaktik ta'sirga ega bo'ladi.

2) Prokuror nazorati tekshiruv tadbirlarini o'tkazishda oshkoralik va ochiqlikni oshirish maqsadida, **E-DAVLAT NAZORATI** portalini tashkil etib, RF va Qozog'iston tajribasi negizida, barcha davlat nazorat qiluvchi organlari tekshiruv tadbirlarini muvofiqlashtirishni Bosh prokuratura yuklash maqsadga muvofiq (xususiy tadbirkorlar va korxonalar – Biznes-ombudsman ixtiyorida saqlanib qolaveradi).

Bunda maxsus nazorat o'tkazish, uni kelishish va muvofiqlashtirish tartibi ishlab chiqilishi lozim.

3) yer munosabatlari bilan bog'liq ma'muriy ishlar bo'yicha adolatli va qonuniy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish maqsadida ushbu ishlarda prokurorning ishtirok etishi majburiylikni belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyahasini ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Пашин В.М., Павлюков В.В. Использование информационных систем при осуществлении прокурорского надзора в сфере оперативно-розыскной деятельности. Юридические науки, Вестник КГУ № 3, 2019. – С.16
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2021-y., 06/21/6191/0229-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda, 2023-yil.
<https://lex.uz/docs/6445147>
5. Андреев В.Б., Инсаров О.А. Информатизация органов прокуратуры Российской Федерации // Настольная книга прокурора. В 2 ч. Ч. 1: практ. пособие / Под общ. ред. О.С. Капинус, С.Г. Кехлерова. 5-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2019. С. 69
6. Приказ Генерального Прокурора Республики Казахстан от 17 января 2023 года №32. Зарегистрирован в Министерстве юстиции Республики Казахстан 18 января 2023 года № 31753.// <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2300031753>
7. Приказ Генпрокуратуры России от 31.08.2023 №583 "Об организации прокурорского надзора за законностью нормативных правовых актов органов государственной власти субъектов Российской Федерации и органов местного самоуправления"// https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_456411/

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).